

Farg'ona Vodiysi To'ydan Keyingi Marosim Qo'shiqlari Poetikasi

*Kasimova Zuxraxan Fatxiddinovna*¹

Annotatsiya: Ushbu maqolada Farg'ona vodiysining o'zbek xalqida to'y nikoh qurish bilan bog'liq holda uch ko'rinishda amalga oshirilishi, shuningdek jamoaviy nishonlanadigan to'y marosimlari jarayonida ijro etiladigan og'zaki ijod namunalari to'y marosimlari folklorini tashkil etilishi haqida so'z yuritiladi. O'zbek oilaviy maishiy marosim folklorida to'y bir necha bosqichdan iborat marosimlarni qamrab olishi, to'ygacha va to'y marosimi jarayonidagi folklor qo'shiqlari badiiyati borasida, so'ng to'ydan keyingi marosimlar jarayonida ijro etiladigan marosim qo'shiqlarining o'ziga xos badiiy xususiyatlari haqida bayon qilinadi. "Kelin salom" qo'shiqlari tuzilishiga ko'ra, salomlarning yo'llanishi izchilligi bilan o'zaro bir-biridan farqlanishi, an'naviy "Kelin salom" qo'shiqlari Farg'ona vodiysida ham mavjudligi, biroq ba'zi bir variantlarda morfologik jihatdan farqlarining kuzatilishi va "Kelin salom" qo'shiqlari poetikasi masalalarini o'rganishda 1. "Kelin salom" qo'shiqlari strukturasi, 2. "Kelin salom" qo'shiqlarida obraz masalalarining tadqiqi ko'rsatiladi. Farg'ona vodiysi o'zbeklarining to'ylari ham sovchi kelishdan boshlanib, kelinni salom soldirish bilan yakunlanishi, nikoh to'yi odatda "Yuzochar", "Kelin salom", "Joy yig'di", "Chimildiq uzdi" singari marosimlar bilan o'z nihoyasiga yetishi va sanab o'tilgan marosimlar ichida o'zining serjilo badiiy-estetik malohatiga ega bo'lgan qo'shiqlari bilan "Kelin salom" marosimi ajralib turishi haqida fikr bildiriladi.

Kalit so'zlar: to'y, marosim, kelin salom, qo'shiq, nikoh, oila, sovchi, kuyov, obraz, ijro.

Kirish

To'y odatda odamlarning xursandchiliklari, oila tarkibidagi ijobiy o'zgarishlarni jamoa bo'lib nishonlashga qaratilgan tadbiridir. Ma'lumki, o'zbek xalqida to'ylar bola tug'ilishi, bolaning sunnat qilinishi va nikoh qurish bilan bog'liq holda uch ko'rinishda amalga oshiriladi. Jamoaviy nishonlanadigan to'y marosimlari jarayonida ijro etiladigan og'zaki ijod namunalari to'y marosimlari folklorini tashkil etadi. Har qanday marosim jarayonida ijro etiladigan, badiiy-estetik talablarga javob beradigan aytimlarda obraz va obrazlashish hodisasini kuzatishimiz mumkin.

O'zbek oilaviy maishiy marosim folklorida to'y bir necha bosqichdan iborat. To'ygacha va to'y marosimi jarayonidagi folklor qo'shiqlari badiiyati va to'ydan keyingi marosimlar jarayonida ijro etiladigan marosim qo'shiqlarining o'ziga xos badiiy xususiyatlari mavjud.

Ma'lumki, butun o'zbek xalqi to'y marosimiga mushtarak holda Farg'ona vodiysi o'zbeklarining to'ylari ham sovchi kelishdan boshlanib, kelinni salom soldirish bilan yakunlanadi. Nikoh to'yi odatda "Yuzochar", "Kelin salom", "Joy yig'di", "Chimildiq uzdi" singari marosimlar bilan o'z nihoyasiga yetadi. Sanab o'tilgan marosimlar ichida o'zining serjilo badiiy-estetik malohatiga ega bo'lgan qo'shiqlari bilan "Kelin salom" marosimi ajralib turadi.

Metodologiya

Ushbu tadqiqot metodologiyasi sifat jihatdan tahlil usuliga asoslanib, Farg'ona vodiysi "Kelin salom" qo'shiqlarining matn va tuzilishini o'rganishga yo'naltirilgan. Tadqiqotda asosan og'zaki folklor materiallari, xususan, to'y marosimlarida ijro etiladigan marosim qo'shiqlari asosiy manba sifatida tanlandi. Ushbu uslubiy yondashuv orqali "Kelin salom" qo'shiqlarining badiiy xususiyatlari, lingvistik tuzilishi va ramziy mazmuni o'rganildi. Tadqiqot ma'lumotlari Farg'ona vodiysining turli hududlaridan yozib olingan va mavjud ilmiy adabiyotlardan olingan qo'shiqlar asosida shakllantirildi. "Kelin salom" qo'shiqlari tahlili ularning tuzilishidagi o'ziga xos jihatlarni, salomlashish tartibi va

¹ ADPI Rus, qirg'iz tillari va adabiyoti kafedrasida katta o'qituvchisi, zkasimova1972@gmail.com



morfoloqik farqlarini aniqlashga qaratildi. Shu bilan birga, qo‘shiqlardagi obraz yaratish uslublari, kuyov va kelin, ularning oila a‘zolari poetik ifodasining badiiy-estetik talqini tahlil qilindi. Tadqiqotda ilgari o‘tkazilgan folklorshunoslik ishlanmalaridan foydalanilib, “Kelin salom” qo‘shiqlarining an‘anaviy nikoh marosimlaridagi o‘rni keng yoritildi. Turli variantlarning qiyosiy tahlili asosida ularning mintaqaviy va madaniy xususiyatlari o‘rganildi hamda ijtimoiy qadriyatlar va oilaviy munosabatlarni aks ettirish darajasi tahlil qilindi. Ushbu metodologiya asosida tadqiqotning natijalari an‘anaviy og‘zaki ijod namunalari orqali madaniy merosni yoritish va ularning o‘zgaruvchanlik xususiyatlarini chuqur anglash imkonini beradi.

Natija va Muhokama

“O‘zbek to‘y marosim folklorida “kelin salom” janriga doir alohida monografik tadqiqot yaratgan folklorshunos O.Ismanova “kelin salom” janri borasidagi maqolasida “Ammo bu janrning genezisi, o‘ziga xos poetik belgilari, janr xossalari, ijro shakli va usullari, obrazlar tizimi va badiiy xususiyatlari yetarli darajada o‘rganilmagan”ligini alohida qayd etadi². Darhaqiqat oldimizda kelin salom qo‘shiqlari badiiyatida obrazlar tizimini tadqiq etish, poetik matn semantik maydonida obrazlarning shakllanishi va tavsifi, obrazlarning badiiy vazifalari masalasini tadqiq etish zarurati mavjud.

Andijon viloyati Qo‘rg‘ontepa tumanida istiqomat qiluvchi 62 yoshli axborotchi Abdumalikova Muxtasardan 2023-yilda yozib olingan “Yuzochar” marosimida ijro etilgan “Kelin salom” qo‘shig‘ining Qo‘rg‘ontepa varianti o‘zining strukturasi, obraz yaratish uslubi va obrazlar tavsifi talqini bilan alohida e‘tiborni tortadi.

“Kelin salom” ijrochisi nutqining kirish qismida sajning qo‘llanishi; “Kelin salom” qo‘shig‘i matnining kirish, kelin tavsifi, kelinga murojaat olqishi, to‘y tavsifi, obrazlarga salom yo‘llash kabi qismlardan iboratligi boshqa hududlar kelin salomidan Abdumalikova M. varianti alohida ajralib turishini ko‘rsatadi. Ushbu variantdagi “Kelin salom” qo‘shig‘i matnini struktural bo‘linishi nuqtai nazaridan shartli ravishda salom yo‘llanuvchi va tavsiflanuvchi obyektlarni ajratib olish maqsadida raqamlab chiqdik:

1

Kelin keldi uyidan,

O‘rgilayin to‘yidan

Salom bersa aylanayin

Sarviqomat bo‘yidan.

2

Bizning kelin chiroyli

Iboli-yu, hayoli

Havas bilan ko‘ringlar

Ko‘rmanasini beringlar.

3

Egiling, egiling, Malika qizim

Salomlariz mo‘l bo‘lsin

Qadamiz qutlug‘ kelib

To‘y ustiga to‘y bo‘lsin

Islom Mirzo boy bo‘lsin.

² Ismanova O. “Kelin salom” kўshiqklarining janr xususiyatlari // Ўзбек фольклоршунослиги антологияси. – Тошкент, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyati, 2017.– Б.545.



4

Kelin ko‘ylak yarashgano,
Bo‘ylaringdan aylanayin
Respublikada bir dona
To‘ylaringdan o‘rgilay.

5

Avvali boshi bismillo,
Qudratiga tavallo
Qodir Xudoga salom.

6

Ummatim deb kuyungan
Haq yo‘lida suyungan
Payg‘ambaringa salom.

Ko‘rinadiki, 1- to‘y tavsifi, 2- qism kelin tavsifi, 3- qism kelinga murojaat, 4-qism kelin va to‘y tavsifi, 5-qism xudoga salom, 6-qism payg‘ambarlarga salom.

Andijonlik 52 yosh Abdullayeva Sojidaxon varianti struktural jihatdan Abdumalikova M. variantidan farq qiladi:

Quruq yerni ho‘l qilgan,
Ikki gulni bir qilgan.
Salom salom qiladi,
Kelin salom qiladi,
Qabul aylang, Ollohim,
Sizga salom yor yor,
Qabul aylang, Ollohim,
Sizga salom yor yor.

Hazrat “Yosin taborak”,
Qilgan ishi muborak,
Payg‘ambarlarga salom.
Salom, salom,
Kelin salom,
Payg‘ambarlarga salom.

Ko‘rib turganimizdek, mazkur variant an’anaviy “Kelin salom” qo‘shiqlari tuzilishiga mos. Unda kirish qism, sajli tavsiflardan iborat nasriy matn ko‘zga tashlanmaydi. Salom yo‘llash janrning asosiy g‘oyasi bo‘lganligi bois to‘g‘ridan to‘g‘ri ilk salom Ollohga yo‘llanmoqda. Keyin Payg‘ambarlar, kuyovning ota-onasi, qarindoshlari va kuyov hamda uning jo‘ralariga yo‘llanadi.

Abdumalikova M. variantidagi “Kelin salom” qo‘shig‘ida Payg‘ambardan keyin bobolari, buvilariga salom yo‘llanadi:

7



Makatillo yo‘llarida
Joynamozi qo‘llarida
Opodadalariga salom.

8

Yuzlari kular iymonli
Xizmatlari chiroyli
Ollohim deb fido qilgan
Islombekni duo qilgan
Kelin salom yor-yor
Qabul aylang Anorxonu,
Mavjudaxon buvi
Sizga salom yor-yor.

Farg‘ona vodiysi to‘y qo‘shiqlari variantidagi “Kelin salom” qo‘shig‘ining keyingi bandlari an’anaga muvofiq qaynotasiga yo‘llanadi. Qaynota, qaynona, qayn aka, qayn opa va hokazo kuyovning yaqin qarindoshlari, do‘stlariga salom yo‘llashga qaratilgan poetik matn tizimli ravishda davom etadi.

Farg‘ona nikoh to‘ylarida yor-yor qo‘shiqlarida nafaqat kelin yoki kuyovning badiiy obrazi, balki quda, yanga, jo‘ra obrazlari ham turli poetik bo‘yoqdorlikda o‘z ifodasini topgan.

Farg‘ona vodiysi kelin salom qo‘shiqlarida iloh (Xudo), Payg‘ambar, qaynota, qaynona, va boshqa kuyov tomondagi qarindoshlar obrazlari dastlab o‘ziga xos tavsiflar vositasida gavdalandiriladi va tavsiflarda tavsiflanmishning o‘ziga xos tabiati va xususiyatlari harakat va faoliyatiga bog‘lanishi natijasida ularning to‘laqonli badiiy obrazi yaratiladi.

Xulosa

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Farg‘ona vodiysi to‘ydan keyingi marosim qo‘shiqlari, xususan, “Kelin salom” qo‘shiqlari, nafaqat badiiy-estetik jihatdan boy folklor janri, balki oila, jamiyat va diniy qadriyatlarni aks ettiruvchi muhim madaniy meros hisoblanadi. Tadqiqot davomida “Kelin salom” qo‘shiqlarining strukturasi salom yo‘llash izchilligi, obrazlarning poetik tahlili va hududiy o‘zgarishlar kuzatildi. Xususan, Qo‘rg‘ontepa va Andijon variantlarining qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, ushbu qo‘shiqlar o‘ziga xos morfologik va semantik xususiyatlarga ega bo‘lib, ularning ijrosi ham hududiy xususiyatlarga bog‘liq holda farqlanadi. Ushbu tadqiqot folklor janrining rivojlanish dinamikasini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi hamda og‘zaki xalq ijodi namunalari orqali o‘zbek to‘y marosimlarining tarixiy va estetik yo‘nalishlarini chuqurroq anglash imkonini beradi. Tadqiqot natijalari xalq og‘zaki ijodi janrlarining mintaqaviy xususiyatlarini o‘rganish va ularning zamonaviy marosimlardagi ta‘sirini aniqlash borasida kelgusidagi ilmiy ishlarga zamin yaratadi. Kelgusida bu janrning boshqa mintaqalardagi o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish, shuningdek, uning zamonaviy ijro uslublariga ta‘sirini tahlil qilish bo‘yicha kengroq tadqiqotlar olib borish tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. B.Sarimsoqov. O‘zbek marosim folklori. Toshkent, “Fan” nashriyoti, 1986-yil. 9-28 b.
2. K.Imomov, T.Mirzayev, B.Sarimsoqov, O.Safarov. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. “O‘qituvchi” nashriyoti, 1990. – 116-142 b.
3. Ismanova O. “Kelin salom” qo‘shiqlarining janr xususiyatlari // O‘zbek folklorshunosligi antologiyasi. – Toshkent, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2017.– B.545.
4. Ochilov, K. "O‘zbek xalq prozasi." Toshkent: Fan, 1981.



5. Sarimsoqov, B. "O'zbek marosim folklori." Toshkent: Fan, 1986.
6. Ismanova, O. "Kelin salom qo'shiqlarining janr xususiyatlari." O'zbek folklorshunosligi antologiyasi, Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017.
7. Sunnatillayev, A. "Folklor-etnografik jamoalar bilan ishlash uslubi." 2021.
8. Mamatqul, J., & Eshonqulov, S. "Folklorshunoslikka kirish." 2021.
9. Ashirov, A. "Etnologiya." 2022.
10. "O'zbek xalq og'zaki ijodi." Guliston davlat universiteti, 2020.
11. "O'zbek xalq og'zaki ijodi." Buxoro davlat universiteti, 2020.
12. "O'zbekistonda ilmiy tadqiqotlar: davriy anjumanlar." 2022.
13. "Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti: Etnomadaniyat ma'ruza matni." 2021.

